

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

«XALQ IJODIYOTI» FAKULTETI

«MUSIQA NAZARIYASI» fanidan



KURS ISHI

***Mavzu: «MUSIQA SAN'AT
TURI»***

BAJARDI: 1- kurs «XA va RAR» bo'limi talabasi

CHamanov O.

Toshkent 2015

Reja

Kiriash

1. Musiqa san'ati turi
2. Musiqaning ifodalari va vositalari

Xulosa

Adabiyotlar

KIRISH

Musíqa (yunoncha μουσική — ilhom parilari san'ati) — tovush san'atidir; musiqiy asarga nisbatan ham *musíqa* atamasi qo'llanishi mumkin.

Musíqa (yun. mousiche —muzalar san'-ati) — inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi sanat turi. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi mu-ayyan musiqiybadiiy obrazlardan iborat. MUSIQA insonning turli kayfiyatlari (mas, ko'tarinkilik, shodlik, zavklanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-qo'rquv va b.)ni o'zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, MUSIQA shaxsning irodaviy sifatlari (kat'iyatlik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va b.)ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi. MUSIQAning ushbu ifodaviy tasviriy imkoniyatlari yunon olimlari — Pifagor, Platon, Aristotel va Sharq mutafakkirlari — Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabiy, tasavvuf arboblari — Imom G'azoliy, Kalobodiy Buxoriy va b. tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan. MUSIQAning odam ongi va hissiyotiga ta'sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo'lgan protsessual — muayyan jarayonli tabiati bilan bog'liqsir. MUSIQA asarlari mazmunida badiiy g'oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o'zaro munosabatlari (taqqoslanish, to'qnashuv, rivojlanish kabi) jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko'ra MUSIQA mazmuni ham turli — epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo'lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo'lgan lirika MUSIQAning "botiniy" tabiatiga ancha yaqindir. MUSIQAning mazmuni — shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, jamiyat va tari-xiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. MUSIQA shakllari har bir davrning ma'naviyma'rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaktida inson faoliyatining ko'pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o'zaro etik va estetik ta'sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir.

MUSIQAning , ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg‘ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir.

Nutq, tovushli signal berish va b. tovushli—ma’noli jarayonlar singari, MUSIQA ham muayyan ma’lumotlarni sadolar vositasida ifodalash imkoni-yatiga ega. Jumladan, tovushlarning baland-pastligi, ingichka-yo‘g‘onligi, uzunqisqaligi, kuchliligi va b. vositalar yordamida odamning ichki holatini ifodalash imkoniyati jihatidan MUSIQA nutqqa (nutq intonatsiyalariga) o‘xshaydi. Ammo, san’at turi sifatida MUSIQA fakat ungagina xos bo‘lgan xususiyatlar (mas, badiiy-estetik maqsadlarni ko‘zlashi, mazmun va shakl badiiy qiymat sifatida kasb etilishi, ayniqsa, MUSIQA tovushlarining muayyan musika tizimlarida tashkil etilishi) bilan nutkdan farq qiladi. Har bir alohida olingan MUSIQA tovushi birlamchi ifodaviy imkoniyatga ega bo‘lsada MUSIQA tovushlarining baland-pastlik munosabatlari lad tuzilmalarida, muvaqqat nisbatlari esa — musiqiy ritm va metrda o‘z aksini topadi. Dunyoning aksariyat xalqlari MUSIQA madaniyati, jumladan, o‘zbek musiqa folklori, an’anaviy musiqa va bastakorlik ijodiyotida lad asosini turli ko‘rinishdagi diatonika tashkil etadi. Kompozitorlik MUSIQAda (ayniqsa, 20- a.da rivoj toptan yo‘nalishlarda) diatonika bilan birga xromatika ham keng o‘rin olgan.

MUSIQAda asosiy badiiy vosita — kuy (melodiya)dir. MUSIQAning ogzaki an’anadagi (monodiya) uslublarida kuy badiiy obrazning yagona va tugal musiqiy ifodasi hisoblanadi. Ko‘p ovozli kompozitorlik yo‘nalishlarda garmoniya, polifoniya unsurlari ham muhim o‘rin egallaydi. MUSIQA asaridagi kuy (mavzu)lar rivoji uning kompozitsiyasn (shakl)ni tashkil etadi. Musiqa shakli asar mazmunining moddiy tajassumi va vujudga kelish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. MUSIQA asarlari shakliga muntazam takrorlanuvchi tarkib va unsurlar xos bo‘lib, bular badiiy mazmundagi o‘zgaruvchanlik, harakatchanlik kabi xususiyatlarga ma’lum darajada ziddir. O‘zaro aloqa va birlik doirasidagi bunday dialektik ziddiyatlar MUSIQA asarini yaratish va ijro etish jarayonida hamisha xilma-xil ravishda o‘z yechimini topadi. Turli xalqlar MUSIQA madaniyati va an’analarida

MUSIQAning barkaror va beqaror unsurlarining o‘zaro munosabatlari ham o‘zgachadir. Mac, an’anaviylik mezoniga asoslangan og‘zaki yo‘nalishdagi MUSIQA uslublari muayyan badiiy mazmun, estetik qoidalar bilan birga MUSIQA asarlari shakliga badixago‘ylik xususiyatlari, nomusiqaviy (asarning ijro etish vaqti, joyi, sharoiti kabi) holatlar o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Individual badiiy obrazlarni ifodalashga qaratilgan yozma an’anadagi kompozitorlik san’ati asarlari esa ko‘proq aynan musiqiy rivojlanish qoidalariga, ya’ni tugallangan, yaxlit va barqaror shakllarga asoslanadi. Shuning uchun, kompozitorlik musikada mazkur shakllarni ifodalashga hamda ob’yektiv holatda saqlashda asosiy omil bo‘lgan nota yozuvi mu-him o‘rin tutadi.

MUSIQA inson madaniyatida va jamoaviy hayotda o‘ziga xos o‘ringa egadir. U dam olish va ko‘ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashklari va mehnat jarayonida muayyan vazifalar bajaradi. Shuning uchun MUSIQA asarlari o‘z mazmuniga muvofiq holda bir nechta uslub, tur va janr guruhlariga ajratiladi. Alla, zikr, marsiya, sarbozcha, vals, marsh, messa kabi janrlar hayotdagi maishiy va b. sharoitlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ashula, dastgoh, cholg‘u kuy, maqom yo‘llari, konsert, miniatyura, romans va b.da estetik ta’sir o‘tkazish vazifalari asosiy o‘rin tutadi. Janrlar, o‘z navbatida, diniy mussha, yoshlar musikasi, maishiy musika, ommaviy mussha, harbiy musika, kamer musika, simfonik mussha, xor musikasi kabi MUSIQAturlariga birlashadi. Tari-xiy, milliy, mahalliy, shaxsiy (individual) MUSIQA uslublari ham musiqiy tafakkur tarzi, ohang , ritm, shakl kabi musiqiy unsurlarni o‘ziga qamrab olib, muayyan bir davr yoki milliy madaniyatga mansub bo‘lgan turli janrdagi asarlar umumiyatini aks ettiradi (q. Avangardizm, Barokko, Klassitsizm, Og‘zaki an’anadagi musika, Romantizm, Sentimentalizm).

Bastakor va kompozitorpar badiiy obrazlarni kengroq qamrashga intilishib, MUSIQA va boshqa san’at turlari qorishmasi (sintezi)dan foydalani-shadi. Aniq tushunchaga ega bo‘lgan so‘z, sahna harakati, kino tasviri va b. unsurlar bilan qorishiq MUSIQA asarining ifodaviy imkoniyatlari kengayadi (q. Vokal

musikasi, Kino musikasi, Rake musikasi, Teatr musikasi).MUSIQA, shuningdek, boshqa san'at turi va janrlarida ham muxim rol o'ynaydi. Mac, opera janrida, o'zbek musiqali dramasi va komediyasida xonandalik, xor san'ati hamda orkestr musiqaschnk drama bilan boglaydi. Balet va b. raqs shakllari ham uzining badiiy obrazlarini MUSIQA yordamida ifodalaydi.

Insonning MUSIQA faoliyati asosan 3 bosqichda amalga oshiriladi: ijod, ijro va tinglash (uquv). Har bir bosqichda asarning mazmun va shakli uzgacha kurinishga ega bo'ladi. Ijod bosqichida badiiy g'oya va shakl muallif ongida mushtarak holda tug'iladi. Ijro jarayonida shakl va mazmun ijrochi tomonidan uning dunyokarashi, estetik tasav-vurlari, shaxsiy tajriba va maxrratiga mos ravishda uzgartiriladi. MUSIQA ixlosmandlari ham ijro etilayotgan asarni uzlarining xususiy didi, hayotiy va badiiy tajribasiga asoslanib qabul qilishadi. Shunday qilib, MUSIQA faoliyati hamma bosqichlarda ijodiy tabiatga ega buladi.

Turli (kompozitorlik va og'zaki an'anadagi) uslublarda mussha ijrochiligi ahamiyati turlichadir. Professional yunalishdagi madaniyat tizimida MUSIQA ko'pincha badiiy asarlarni ijro etadigan san'atkorlar faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun MUSIQA ijrochi (sozanda, xonanda)larining aksariyati kompozitor va bastakorlarning haqiqiy hamkorlaridir. Ular ustoz-shogird munosabatlari jarayonida uzlashtirgan yoki nota yozuvi yordamida o'rgangan asarlarni jonli ravishda tinglovchilar oldida talqin etadilar.Musiqiy folklor tizimida MUSIQA namunalari omma ongining badiiy mahsuloti sifatida yuzaga kelib, havaskor qo'shiqchi, sozanda yoki jamoaviy tarzda ijro etiladi.MUSIQA ijrochiligi mussha cholg'ulari hamda inson ovozk vositasida amalga oshiriladi.Bular yakka tarzda, ansambl, xor, orkestr kabi birikma shakllarida namoyon buladi.

MUSIQA ijodiyoti, ijrochiligi va tinglanishi MUSIQA faoliyati ning boshka turlari — mas, musiqa tarbiyasi, musiqa ta'limi, i. t. (Musiqashunoslik), musiqiy tanqid va boshkalar bilan birga jamiyat MUSIQA madaniyat i tizimini tashkil etadi.

Musiqa tarixi.MUSIQAning paydo bo'lishi masalasida turli ilmiy farazlar vujudga kelgan: hissiyotga to'lgan nutq oxangi (G. Spenser), qushlarning sayrash

va hayvonlarning uz juftlarini chaqirishi (Ch. Darvin), ibtidoiy odamlarning mehnat usullari (K. Byuxer) va ularning chaqiriq tovushlari (K. Shtumpf), jodusehrlash marosimlari (J. Kombarye) MUSIQAning ilk manbalari hisoblanadi. Sharq muta-fakkirlari ham MUSIQAning vujudga kelish muammosi haqida ilmiy mulohazalar qoldirishgan. MUSIQA tarixini Forobiy inson nutqining shakllanish jarayoni va hissiyotlari bilan bevosita bog‘liq holda, Ibn Xaldun (14-a.) esa — ijtimoiy tizimlarning shakllanish krnuniyatlariga asoslangan xrla tushuntirishgan.

Zamonaviy musiqashunoslik fani arxeologiya va etn. ma’lumotlaridan kelib chiqib, MUSIQA san’atini ibtidoiy jamiyatda insonning amaliy faoliyati jarayonida boshqa san’at turlari (rake, she’riyat va q.k.) bilan krrishma (sinkretik) holda paydo bulishini asoslab beradi. Bunda MUSIQA ijtimoiy muloqot vositasi, mehnat va marosim jarayonlarini tashkil etish vositasi bulib xizmat qiladi va, ayni vaqtda, jamiyatga zarur axlokiyma’naviy xususiyatlarni tarbiyalash maqsadlarini kuzlaydi. Ibtidoiy davrning oxirgi bosqichida dastlabki qorishma san’at majmuasidan bir qancha san’at turlari, jumladan, MUSIQA ham ajralib chiqadi. Ushbu davrga mansub afsonalarda MUSIQA tabiatga, yovvoyi hayvonlarni o’rgatishda ta’sir kursatish, insonni turli kasalliklardan davolovchi kuch sifatida ta’riflanadi (q. Alikambar, Ibtidoiy san’at, Mavsum ko‘shiklari, Marosim qo‘shiqlari).

Quldorlik va ilk feodal tuzumiga asoslangan qad. dunyo davlatlari — Misr, Shumer, Bobil, O’rta Osiyo (taxmusika mil. av. 1ming yillik davri), Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Rim madani-yatlarida kasbiy musiqachilar maktablari shakllangan. Ular maxsus (bastakorlik, musiqa ilmi kabi fandagi) bilim va qoidalarga asoslanib ijod qilgan. Natijada aytim, cholg’u, raqs, doston va b. janrlar paydo bulgan.

Turli xil MUSIQA asboblari (chang , ud, tanbur, lira, kifara, puflama va urma asboblari) takomillashtirilib, ular barqaror tovushqator va shakllarga ega bo’lgan. MUSIQAning ushbu davrda asosan og‘zaki an’anada rivojlanishiga qaramay, ayni vaqtda, uning ilk yozuv (iyeroglif, harfiy va b.) tizimi ixtiro etilgan, MUSIQA estetikasi va nazariyasi ta’limotlari shakllangan: Xitoyda — Konfutsiy,

Yunonistonda — Pifagor, Geraklit, Demokrit, Aristotel, Platon, Aristoksen va b.,
Oʻrta Osiyoda — Borbad.

Oʻrta asr Gʻarbiy Yevropada professional cherkov (bir ovozli grigorian xorali, keyinchalik koʻp ovozli xor va vokalcholgʻu janrlari — orga-num, kondukt va b.), dunyoviy (Fran-siyada — trubadurlar, truverlar; Germaniyada — minnezingerlar sanʼati) hamda xalq Mxi rivoj topadi. 12-a.da Fransiyada Bibi Maryam ibodatxonasida birinchi kompozitorlik maktabi (Notr-Dam maktabi), 14-a.da Fransiya va Italiyada "Are nova" uslubi yuzaga kelgan. Gvido d Aretsso ixtiro etgan toʻrt chiziqli nota yozuvi tovush balandligi va nagʻmalar uzunligini aniq qayd etishga imkon yaratgan.

Ushbu davrda Oʻrta va Yaqin Sharq (Arab xalifaligi)da erkin rechitativ va parda tuzilmalariga asoslangan musulmon kasbiy MUSIQA (azon, tartil, tajvid) janrlari shakllangan. Ular boshka MUSIQA turlaridan mustaqil ravishda rivojlanib, keyinchalik Oʻn ikki makom tizimining shakllanishiga ham maʼlum darajada taʼsir koʻrsatgan. 8— 13-a.lar musulmon Shark, xalqlari ogʻzaki anʼanadagi kasbiy MUSIQA si doston (MUSIQA nazariyasida) yoki parda (sheʼriyat vaMUSIQA amaliyotida) tizimlari asosida shakllangan. Oʻrta Osiyo, Eron va arab xalqlari MUSIQAsida muttasil davom etgan oʻzaro taʼsir va aloqa jarayonlari natijasida ushbu xalqlar uchun umumiy boʻlgan vokal (savt, gʻino, amal, mulammo, qavl va b.) va cholgʻu (ravoshin, peshrav kabi) turlari vujudga kelgan. Mashhur bastakor, xonanda va sozandalar Ibrohim Mavsiliy, Ishoq Mavsiliy, Ziryob, Mansur Zalzal, Ibn Surayj, Ibn Axvas as-Soʻgʻdiy, Safiuddin al-Urmaviy va b. ijod qilgan. Musiqa ilmida ham muhim yutuqlarga erishilgan. Yunon MUSIQA nazariyasi hamda mahalliy xalqlar MUSIQA anʼanalariga asoslangan musiqiy estetika vailmiynazariy taʼlimotlar dastlab mat. fanlari doirasida (al-Kindiy, Forobiy, Ibn Sino), keyinchalik mustaqil fan sifatida (Urmaviy) shakllangan. Ishoq Mavsiliy va Kindiy Sharqda ilk bor musiqa (harfiy) yozuvini ixtiro etishgan. Urmaviy esa ushbu yozuvni parda tizimiga moslashtirgan.

Uygʻonish davri Yevropa madaniyatida taraqqiy etgan insonparvarlik gʻoyalari va dunyoviy mazmunga asoslangan MUSIQA sanʼatida badiiy-estetik maqsadlar

asosiy vazifa darajasiga ko'tarildi, cholg'u (lyutnya, viola) va vokal {madrigal) ijrochiligi rivoj topgan. Professional MUSIQAda polifoniya uslubi, jumladan, a kapella xor ijrochiligi (motet, messa va b. janrlar) o'z cho'qqisiga ko'tarildi. Yangi kompozitorlik (Angliyada — D. Dansteybl, Niderland maktabi, Rimda — Palestrina, Vene-siyada — A. va J. Gabriyeli) maktablari shakllandi.

17—18-a.ning 1-yarmida yangi janrlar — opera (Italiyada — K. Monte-verdi, A. Skarlatti; Fransiyada — J.B.Lyulli, J. B. Ramo; Angliyada —G. Pyorsell), oratoriya (G. F. Gendel), kantata (G. Shyuts, I. S. Bax), konsert (A. Korelli, A. Vivaldi, I. S. Bax, Gendel), kamer ansambl, sonata (A. Korelli, D. Skarlatti), syuita va b. janrlar rivoj topgan.Organ (J. Freskobaldi, Bax, Gendel), klavesin (U. Byord, G. Pyorsell, F. Kuperen, J. Ramo) uchun asarlar yaratilgan. Ushbu davrda zamonaviy kamonli cholg'u asboblari (skripka, alt, violonchel)ning buyuk ustalari A. va N. Amati, J. Gvarneri, A. Stradivari, fortepiano ixtirochisi B. Kristofori ijod etishgan, opera teatrlari, filarmoniyalar, musiqa nashriyotlari, musiqa ta'limi (konser-vatoriyalar) rivoj topgan. 18-a. o'rtalari — 19-a.ning boshida Yevropa MUSIQAsi Ma'rifatchilik davri hamda Buyuk Fransiya inqilobi g'oyalari ta'siri ostida rivojlangan (fransuz kompozitorlari K. Glyuk, L. Kerubini, J. F. Lesyuerlarning opera ijodi, Vena klassik maktabi vakillari ijodi, simfonizm musiqatafakkuri). 19-a.da rus (MUSIQA Glinka, "Qudratli tuda" vakillari, P. Chaykovskiy), polyak (F. Shopen, S. Monyushko), chek (B. Smetana, D. Dvorjak), venger (F. Erkel, F. List), norveg (E. Grig), ispan (I. Albenis, E. Granados), fin (Ya. Sibelius) yangi milliy kompozitorlik maktablari shakllangan, yetakchi ijodiy oqim sifatida romantizm qaror topgan (K. MUSIQA Veber, F. Shubert, R. Shuman, F. Mendelson, G. Berlioz, N. Paganini vab.). 20-a. MUSIQA tarixida alohida o'rin tutadi.MUSIQA madaniyatining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz bergan. Ijodida yangi-yangi uslub va yo'nalishlar (musiqiy avangardizm, modernizm) rivoj topgan. 20-a.da yuz bergan ilmiytexnik va informatsion inqiloblar (radio, televideniye, grammplastinka va magnit yozuvlarini ixtiro etish) natijasida MUSIQAning tinglovchilarga yetkazish va eshitish sohalarida yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Buning natijasida ommabop musiqa madaniyati rivoj

topdi. Kompozitorlik ijodida sof musiqiy (simfoniya, konsert, kamer-cholg'u MUSIQA kabi) janrlar o'rniga vokal MUSIQAsi, teatr MUSIQAsi, kino MUSIQAsi kabi "aralash" turlar yetakchilik qila boshladi. Kompozitorlik ijodi bilan birga an'anaviy MUSIQA ijodi ham yangi, zamonaviy sharoitlarga moslashib rivoj topdi. Jumladan, Shark, mamlakatlari mumtoz MUSIQA janrlari (mas, hind ragalari, pokiston qavalli, ozarbayjon mug'om, o'zbek va tojik maqomlari va h.k.) uzining milliy doiralaridan chiqib jahon sahnalarida ijro etila boshladi, kompozitorlik ham ommaviy MUSIQA yo'nalishlariga o'z ta'sirini o'tkazdi.

O'zbekistonda MUSIQA, asosan, xalq va og'zaki an'anadagi professional MUSIQA sifatida qadimdan rivojlanib kelgan. Xalq MUSIQAsidalapar, terma, yama, qo'shiqlarttt turli xillari (marosim, maishiy, mehnat, o'yin, raqs, lirik, nasihatomuz va b.), og'zaki an'anadagi o'zbek professional MUSIQAsida esa doston, katta ashula, ashula, maqom, cholg'u yo'llari kabi janrlar mavjud. O'zbek MUSIQA merosida 4 asosiy mahalliy uslubni farqlash mumkin (q. Buxoro-Samarqand musika uslubi, Xorazm musika uslubi, Farg'ona — Toshkent musika uslubi, Surxondaryo-Qashqadaryo muyesha uslubi). 20-a.da o'zbek va b. O'rta Osiyo xalqlari MUSIQA merosini yozib olish va o'rganish bo'yicha muhim ishlar bajarildi, yuzlab nota to'plamlari va i. t.lar nashr etildi. Bastakor, xrfiz va sozandalar o'zbek MUSIQA merosi durdonalari (Shashmakom, Xorazm makomlari, Faryuna-Toshkent makom yo'llari va b.) ni keng targ'ib qilibgina qolmay, yangi cholg'u kuy va ashulalar yaratdilar, dastlabki musiqali drama va komediya asarlarining muallif yoki hammuallifi bo'lishdi. 1930—40 y.larda O'zbekistonda avvallari bo'lmagan yangi (opera, balet, simfonik MUSIQA, kamer MUSIQA, konsert kabi) MUSIQA janrlari yuzaga keldi. Ular, ayniqsa, 1950—60 y.lardan boshlab O'zbekiston kompozitorlari ijodida keng rivoj topdi, shuningdek, ommaviy MUSIQAning estrada musiqasi, yoshlar musiqasi kabi yo'nalishlari ham keng yoyilgan.

MUSIQA ta'limi tizimi O'zR Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufida bulib, 311 bolalar musiqa maktablari, 3 maxsus akademik litsey, 30 ga yaqin san'at, MUSIQA hamda madaniyat kollejlari, O'zbekiston davlat konservatoriyasi,

Toshkent davlat madaniyat in-ti, MUSIQA Uyg'ur nomidagi san'at in-ti va b. oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi.

Hozirda O'zbekistonda MUSIQA faoliyati asosan ijrochi jamoalar (turli orkestr, xor va ansambllar), "O'zbeknavo", Uzteleradiokompaniyasi tarkibidagi ijrochi guruxlar va yakkaxonlar, hamda mustaqil ravishda ijrochilik bilan shug'ullanayotgan ayrim xonanda va sozandalar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Abdumannon Nazarov, Olimjon Bekov

Musiqaning isfodaviy vositalari

Kuy Tovushlarning bir ovozli shaklda ma'lum lad va metr hamda ritm jihatdan uyushib kelishiga kuy doydadi^

Muzikaviy mazmun jo'roiz, yakka kui'orqali ham ifodalanishi mumkin. Bir ovozli muzika asarlari tekstli (qo'shiq) va tekstsiz (cholg'u kuylari) holida bo'lishi mumkin. Tekstli kuy mazmuni ancha yorqin va tushunarli bo'ladi. Bunga bir ovozli kuylar bo'lgan xalq qo'shiqlari va raqslari misol bo'la oladi. Ularning mazmuni xilma-xildir. Bunday asarlarda xalqning boshdan kechirgan-lari va orzu-niyatlari, hayoti aks ettirilgan.

Xalq muzika ijodida ikki ovozli va ko'p ovozli asarlar ham uchraydi. Lekin bunday asarlarda nechta ovoz (qo'shimcha ovoz) bo'lishidan qat'i nazar, asosiy kuy yo'nalmasi barcha tovushlarning qo'shib eshutilishidan tashkil topadi.


Ko'p millatli mamlakatimiz xalqlarining qo'shiqlari kuyga juda ham boydir. Qo'shiqlarning kuy tarkibi ularning xilma-xil mazmuniga nihoyat mosdir. Bundan tashqari, turli xalqlar-ning qo'shiqlari ham, raqs kuylari ham o'zlariga xos kuy tuzilma-lariga ega bo'lishi bilan bir-biridan farq qiladi. Boshqacha qilib aytganda, har bir xalq qo'shig'ida o'ziga xos milliy kolorit bo'ladi.

Metr. Takt. Ulchov.

Musiqani tinglayotganimizda biz, beixtiyor yoki ongli ravihda, bir maromda boshimizni boshlaymiz. Bunday xarakatlarni o'ziga jalb etadigan, bizga "buyruq" beradigan, musiqaning chayqash, qo'limzni silkitish, oyog'imiz bilan erni tepkilashni *pulsatsiyasi* (tomirning bir tekis urishi) undaydi. Pulsatsiya – bu bir tekis ravishda urib turadigan zarblardan iborat jarayondir.

Musiqada pulsatsiya zarblariga **hissa** deyiladi. Hissavaqtga bog'liq sanash birligidir. Bu birlik tovush cho'zmlari bilan o'lchanadi. Masalan, 21- misoldagi kuyning

hissalari



sakkiztaliklarga teng,

21

22-misolda har bir hissaning cho'zimi chorakka barobar

22



Musiqada *hissalarning bir tekis kelishi* metr¹ jarayonini hosil qiladi.

Hammaga ma'lumki, har bir so'zda urg'u berilgan va urg'udan xoli bo'lgan bo'g'inlar mavjud. So'zlar ketma-ketligida urg'uli va urg'usiz so'z bo'g'inlarining qay vaqtda kelishi ahamiyatga ega emas. She'r tuzilishida, aksincha, bunga katta e'tibor berilib, urg'uli va urg'usiz so'z bo'g'inlarini muayyan bir tartibga keltirish talab qilinadi. Bu tarzdagi tartib metr deb ataladi.

Kuy yangrashida ham ayrim hissalar urg'usi bilan, ya'ni qattqlik xususiyati bilan ajralib turadi. Musiqada urg'uning o'zini **aktsent** (>), aktsentga ega hissani **kuchli**, aktsent tushmaydigan hissani **kuchsiz hissa** deb ataydi. Shundan kelib chiqadiki, musikiy **metr** – bu kuchli va kuchsiz hissalarining bir tekis almashinib turishidir.

¹ Metr – (yunoncha metron) – me'yor, o'lchov

Aktsentning roli birorta tovushni boshqa tovushlardan ajratib ko'rsatishdir. Kuchli hissaga tushgan aktsent uning og'ir hissaligini yanada ta'kidlaydi. Metrni aniq his qildiradigan ana shunday aktsent **metrik aktsent** deb ataladi. Muntazam ravishda keladigan aktsent kuy xarakatlarini tartibga soladi. Metrik aktsent osongina va samimiy ravishda idrok qilinadigan raqs, marsh, ommaviy va ommabob qo'shiq janrlari, klassik musiqa asarlariga xosdir.

Odatda, kuchli hissa bir necha kuchsiz hissalaridan so'ng qaytariladi. Masalan:

Agar kuchli hissa bitta kuchsiz hissadan keyin kaytarilsa – **ikki hissali metr**, ikkita kuchsiz hissalaridan so'ng qaytarilsa – **uch hissali metr** hosil bo'ladi.

23



Ikkita kuchli hissaning oralig'igat**akt**deyiladi. Takt metrning o'lchov birligi hisoblanib, hamisha kuchli hissadan boshlanadi. Nota yozuvida taktlar nota yo'lini ko'ndalangiga kesib o'tadigan **takt chizig'i** bilan ajratiladi. Takt chizig'idan so'ng yoziladigan birinchi nota yoki pauza kuchli hissadir.

Har bir taktni tashkil qiladigan hissalar soni va ularning cho'zimi nota yozuvida kasrsimon raqam bilan ifodalanadi. Unga **o'lchov** deb nom berilgan. O'lchovning ustki raqami takt (metr)dagi hissalar sonini, pastki raqami har hissaning cho'zimini ko'rsatadi. Masalan: 2/4 o'lchov – har bir takt ikkita hissaga ega, har bir hissa choraktalik cho'zimi bilan o'lchanadi. O'lchov asarning faqat birinchi qatorida kalit va kalit belgilaridan so'ng qo'yiladi. Kuchli hissadan boshlanadigan takt to'liq taktdir. Ba'zi asar *to'liqsiz taktdan*, ya'ni *kuchsiz hissadan boshlanuvchi taktoldi* dan boshlanadi. Bunday asarlarning ohirgi takti ham to'liqsiz bo'lib, taktoldi bilan birga to'liq taktni tashkil etadi.



Metr turlari. Oddiy metrlar. Oddiy taktlarda cho'zimlarning guruhlanishi

Metr turlarini takt ichidagi kuchli hissalarining soniga qarab ajratadi. *Bitta kuchli hissaga ega takt **oddiy metr**ning ko'rsatkichidir. Ikkita, uchta va undan ortiq kuchli hissani o'z ichiga olgan **taktmurakkab metr** hisoblanadi.*


Oddiy metr(yoki oddiy takt, yoki oddiy o'lchov) deb bita kuchli hissani o'z ichiga olgan metrga deyiladi.

Oddiy metrlar ikki yoki uch hissadan tashkil topgan metrlarga ajraladi va quyidagi o'lchovlarda o'z ifodasini topadi:


oddiy ikki hissali o'lchovlap – 2/2, 2/4, kamdan-kam 2/8, 2/16.
2/2 o'lchov alla breve deyiladi va o'rniga C belgi qo'llaniladi.

oddiy uch hissali o'lchovlar – 3/2, 3/4, 3/8, kamdan-kam 3/16.

Nota yozuvini o'qish jarayonini osonlashtirish maqsadida taktdagi mayda (bayroqchali) cho'zimlari takt hissalarini cho'zimiga teng bo'ladigan alohida



guruhlarga birlashtiriladi. Shunday qilib, takt hissalarini soniga qarab, oddiy o'lchovli taktlarda bitta, ikkita yohud uchta cho'zimlar guruhi hosil bo'lishi mumkin.



Pauzalar nota cho‘zimlaridek

hissalarga bo‘ysunib guruhlanadi.

Murakkab metrlar. Murakkab taktlarda cho‘zimlarning guruhlanishi

Murakkab metr ikkita va undan ortiq oddiy taktlarni birlashtirish natijasida hosil bo‘ladi.

Murakkab taktdagi kuchli hissalarining soni uni tashkil etuvchi oddiy metrlar sonidan kelib chiqadi. Masalan: $2/4 + 2/4 + 2/4 = 6/4$ – budegani, oltita chorakdan iborat taktda uchta aktsentli hissa mavjud. Bilamizki, to‘liq takt faqat kuchli hissadan boshlanadi. Shunday ekan, keltirilgan misoldagi aktsentli hissalaridan birinchisi eng kuchli hissadir. Qolgan ikkitasi unga nisbatan sal kuchsizroq bo‘ladi. Shuning uchun ular **nisbatan kuchli hissalar** deb ataladi.

Murakkab metrlar uch xilda bo‘ladi: ***bir turdagimurakkab metrlar***, ***aralash metrlar*** va ***o‘zgaruvchan metrlar***.

Bir turdagi murakkab metrlar, o‘z navbatida, ikki hissali va uch hissali metrlarga ajraladi.

Murakkab ikki hissali metrlar oddiy ikki hissali metrlar qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladi. Ulardan to‘rt hissali metr (2ta hissa+2ta hissa) ko‘p



qo‘llaniladi – 4/4, 4/2, 4/8. 4/4 o‘lchovi C belgi bilan ham belgilanishi ham mumkin.

$$4/2 = 2/2 + 2/2$$

$$4/4 = 2/4 + 2/4$$

$$4/8 = 2/8 + 2/8$$

Murakkab uch hissali metrlar oddiy uch hissali metrlar qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladi. Ulardan olti hissali (3+3) va to‘qqiz hissali (3+3+3) metrlar





keng tarqalgan : 6/4, 6/8; 9/4, 9/8.

Aralash metrlar ikki va uch hissali metrlar qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi.

Ulardan besh hissali metrlar (3+2 yoki 2+3) ko'proq uchraydi:

28 $5/4=2/4+3/4$; $5/8=2/8+3/8$


$5/4=3/4+2/4$; $5/8=3/8+2/8$



Yetti hissali metrlar (2+2+3; 2+3+2; 3+2+2) kamdan kam uchraydi.

29

O'zbek xalq qo'shig'i "Bilaguzuk"



O'zgaruvchan metr musiqa asari davomida o'zgarib turadigan metrga aytiladi. O'zgaruvchan metr tekis va notekis almashinadilar. Tekis, ya'ni vaqti-vaqti bilan almashinadigan metrning o'lchovlari kalit yonida ketma-ket joylashgan

30 Latish
xalq qo'shig'i




ikkita kasr raqam bilan ifodalanadi.

Notekis almashinadigan metrning o'lchovlari har bir o'zgarish yuz berganda takt boshida qo'yiladi.

Murakkab taktda cho'zimlarning guruhlanishida uni tashkil qiladigan oddiy o'lchovlar alohida guruh bo'lib, bir biridan ravshan ayrilishi zarur. Oddiy o'lchovli

31 Toshkent maqomi
"Gulyor Shahnoz"
III- qism "Chavandoz"




guruhchalarda, yuqorida aytilgandek, mayda cho‘zimlarni guruhlash qoidalariga rioya qilish lozim.

Ritm. Sinkopa. Cho‘zimlarning erkin ravishda bo‘linishi

Ritm – bu metr asosida uyushtirilgan tovush cho‘zimlarining izchilligi.

«Ritm» so‘zi tartibga solingan, to‘g‘ri uyushtirilgan harakatni bildiradi. Bunday harakatning tashkillashtirish vositasi sifatida metrik aktsentlari xizmat qiladi. Demak, metr ritmning asosidir. Masalan: quyida 21- misolda keltirilgan kuyning



aktsentlarining o‘zaro ta’siri quyidagicha sxematik tasvirda ko‘rsatilgan:

32

Ritmik harakat jarayonida metrik aktsentlardan tashqari tayanch rolini **ritmik aktsentlar** xam bajo keltirishi mumkin. Ritmik aktsentlar takt cho‘zimlari orsida eng yirik cho‘zimli tovushda paydo bo‘ladi. Chunki davomli tovushlar og‘ir, aktsenti bor, tayanch tovush sifatida his etiladi. Mayda cho‘zimdagi tovushlar esa qisqa, engil bo‘lib yirik cho‘zimli tovushlarga tomon intiladi.

Takt kuchli hissasidagi tovushning cho‘zimi yirikroq bo‘lishi samimiy holatdir. Bunday holda metr (kuchli hissa) va ritm (yirik cho‘zim) aktsentlari bir-biriga to‘g‘ri keladi.

Metrva ritm aktsentlarining bir-biriga to‘g‘ri kelmasligigasinkopadeyiladi.

Sinkopaning yaqqol jihatlari – 1) kuchsiz hissada olingan tovushning yangrashi keyingi kuchli hissada ham davom etilishi; 2) kuchli hissaga pauzaning to‘g‘ri kelishi; 3) kuchsiz xissalarga ataylab aktsent berilishi.

Sinkopalar oʻrnashgan loyi boʻyicha *taktaro*, *takt ichida* va *hissa ichidagi* sinkopalarga ajraladi.

Taktaro sinkopa – bir taktning kuchsiz hissasida yozilgan nota ikkinchi bir

330`zbek xalq
qo`shg`l
"Olma anor"



taktning kuchli hissasidagi xuddi shunday nota bilan liga orqali bogʻlanadi:

Takt ichidagi sinkopa – taktning kuchsiz va kuchli hissalaridagi notalar liga bilan bogʻlanadi yoki ularning qoʻshilishidan hosil boʻlgan bitta umumiy

34 O`zbek xalq
qo`shg`l
"Cho`yandi"




chuzimdagi nota
yoziladi:

bilan

Hissa ichidagi sinkopa – hissaning kuchli kismi choʻzimi boʻyicha kuchsiz qismidan qisqaroq boʻladi:

350`zbek xalq
qo`shig`l
"Chamannor"



360`zbek xalq
qo`shg`l
"Qari navo"



Kechikib qoluvchi sinkopa - taktning kuchli hissasida pauza qoʻyiladi

Kuchsiz xissalarga ataylab aktsent berilishi – asarning janri yoki mazmuniga bog‘liq bo‘ladi.

37 N.Rimskiy-Rorsakov.
"Shahrizoda" III-



Musiqada asosiy cho‘zimlarining ikkita teng maydaroq cho‘zimga bo‘linishi cho‘zimlarning **asosiy bo‘linishi** deb aytiladi. Asosiy cho‘zimlarning istalgan (ikkitaga emas) teng qismlarga bo‘linishi **erkin bo‘linishidir**.

Birorta asosiy cho‘zimning uchta teng maydaroq cho‘zimga bo‘linishi natijasida **triol** hosil bo‘ladi.

38



39




To‘rtta qismga bo‘linadigan cho‘zim beshta teng qismga bo‘linsa – **kvintol**, oltitaga – **seksol**, etti taga – **septol** hosil bo‘ladi.

40



Sakkizta qismga bo‘linadigan cho‘zim to‘qqizta teng qismga bo‘linsa – **novemol**, o‘ntaga – **detsimol** paydo bo‘ladi.


Nuqtasi bor cho‘zimlar asosan uchta teng maydaroq cho‘zimlarga bo‘linadi. Agar nuqtali cho‘zim uchta emas, ikkita teng qismga bo‘linsa – *duol*, to‘rttaga – *kvartol* hosil bo‘ladi.



Bir tekis ritm – bir hil cho‘zimlardan iborat ritmik shakl.



Punktirli ritm² – nuqtali cho‘zimlarni o‘z ichiga olgan ritmik shakl.



Sinkopali ritm – sinkopasi mavjud ritmik shakl.

Ritm musiqaning asosiy ifodali vositalardan biri bo‘lib (kuy va garmoniya bilan baravar), uning jonli sur‘atidir. Ritmning ifodaliligi turli xarakterdagi harakatlar bilan bog‘liq. Tantanali yurish, jizzaki raqs, xotirjamlik yoki ehtirosli hayajonlik musiqasi ahamiyatli darajada ritm vositalari yordamida yaratiladi. Ritm

metr bilan birgalikda har qanday kuyning janr xususiyatlarini aniqlaydi. Shuning uchun, valsni polkadan, marshni alla kuyidan ajrata olish qiyin ish emas.

Garmoniya haqida tushuncha.

Garmoniya - yunoncha soʻz boʻlib, “bogʻliqlik, muvofiqlik, mutanosiblik” degan maʼnoni anglatadi.

Musiqada bir necha tovushlarning ohangdoshlikka birlashishi, ohangdoshliklarning mantiqiy bogʻlanib ketma-ket kelishiga **garmoniya deyiladi**.

Garmoniya musiqaning muhim badiiy-ifodaviy vositasi boʻlib, **akkordlar haqidagi fandir**.


Garmoniyaning asosiy tushunchalari – **akkord, lad funksiyasi, ovoz yoʻnalishi** – butun kurs davomida koʻrib chiqiladi.

Koʻp asrlar mobaynida koʻp ovozli musiqada akkordning tersiyali tuzilishi ustunlik qiladi.

Lad funksiyalari akkordlar almashinuvidagi turgʻunlik bilan noturgʻunlikning navbatlashib kelishida yuzaga chiqadi. Turgʻunlik holatini tonika, noturgʻunlikning esa boshqa funksiyalar ifodalaydi.


Garmonikharakatda bir akkordning tovushlari keyingi akkord tovushlariga oʻtadi. Natijada akkord ovozlari, yani **ovoz yoʻnalishi** tashkil topadi. Ovoz yoʻnalishi muayyan qonuniyatlarga boʻysunib, musiqiy ijodiy jarayonida qisman yangilanadi.

Musiqiy asarda garmoniya, kuy, metroritm, temp, faktura, dinamika bilan birgalikda bogʻlanib keladi. Musiqiy asar rivojlanishida garmoniya kuyni boyitadi. Musiqaning boshqa elementlariga hamohang kelib, garmoniya ularning yanada taʼsirli, maroqli boʻlishiga xizmat qiladi. Fikrimizning isboti uchun



kompozitor A.Muxamedovning lirik kuyini tinglaymiz.

Shu kuyni takroran garmonik joʻrlikda tinglab koʻrsak, biz garmoniya unga qanday “boʻyoqlar” berganini, kuy nechogʻliq boyiganini eshitamiz.



Garmoniya fan sifatida quyidagilarni oʻrganadi:

- akkordlar va ularning tuzilishi, hamda toʻrtovozlik bayonidatoʻgʻri ifodalanishini;
- akkordlarning funktsional bogʻliqligi va ularning tez-tez uchrab turadigan ketma-ketliklarini;
- akkordlarning toʻgʻri ovozyoʻnalishiga asoslangan bogʻlanishlarini;
- turli tipdagi kadentsiyalarni;
- akkordli va noakkordli tovushlarni;
- asar rivojlanishida tonal rejasining asosiy qoidalarini.

Asosiy uchtovushliklar funktsional tizimi.

Lad garmoniyaning asosi boʻlib, tonika uchtovushligiga intilishi bilan birlashishgan akkordlarning oʻzaro munosabatlari tizimidir.

Laddagi biror tovush yoki akkordning roli **lad funktsiyasi** deyiladi. Funktsiyalar munosabatlariga xos keskinlik va sustliklar majmuasi **funktsionallik** deb ataladi. Uning asosi funktsiyalarning, ayniqsa, ladning tonikasi va tonika boʻlmagan boshqa garmoniyalari oʻrtasidagi kontrastligidir.

Musiqaviy tizimda akkordlarning oʻzaro munosabatlari turlicha. Bunday oʻzaro munosabatlar tizimi **lad-garmonik tizim** deyiladi. Umum qoʻllanadigan

major va minor ladlariga asoslangan lad-garmonik tizim *major-minor tizimi* deyiladi.

Akkordlar funksiyasi. Akkordning laddagi ahamiyati, garmonik rivojlanishdagi harakati akkordning *garmonik funksiyasi* deb ataladi.

Asosiy tovushi tonallikning I pogʻonasiga joylashgan uchtoʻvushli akkord turgʻun, tonika funksiyasini bajaradi.

Asosiy tovushi tonallikning IV pogʻonasiga joylashgan akkord noturgʻun, subdominanta funksiyasini bajaradi.

Asosiy tovushi tonallikning V pogʻonasiga joylashgan akkord noturgʻun, dominanta funksiyasini bajaradi. Dominanta - eng noturgʻun funksiyadir.

Tabiiy majorda ushbu asosiy uchtoʻvushliklar katta harflar, yaʼni T, S, D harflari bilan belgilanadi, tabiiy minorda kichik harflar t, s, d, garmonik minorda esa bu uchtoʻvushliklar t, s, D harflari bilan belgilanadi.

Musiqada har qaysi akkord oʻzidan oldin va keyin keladigan garmoniyalar bilan aloqasiz holda, shuningdek asar tonalligi va ladidan tashqari holatda alohida koʻrib chiqilmaydi. Asar lad va tonalligidan kelib chiqib akkordning yangrash xarakteri, yaʼni funksiyasi oʻzgaradi. Masalan, major uchtoʻvushligi (do- mi- sol) Do major tonalligida turgʻun akkord boʻladi, chunki u tonallikning turgʻun pogʻonalaridan (I, III, V) tashkil topadi. Шy аккорднинг оʻзи Sol major tonalligida IV pogʻona uchtoʻvushligi boʻlib, uning tarkibiga ikkita noturgʻun IV, VI pogʻonalar kiradi. Fa major tonalligida bu akkord V pogʻona uchtoʻvushligi boʻlib, ladning eng noturgʻun akkordi hisoblanadi. Sababi – unga tonallikning yetakchi VII va II pogʻonalr kiradi. Demak, asarning lad va tonalligiga koʻra berilgan akkord muayyan ohangga ega boʻlib, aniq funktsiyani bajaradi.

Asosiy garmonik davralar. Musiqiy asar garmoniyasi qator garmonik davralardan iborat. Bir necha davralarning oʻzaro bogʻliq ketma-ketligi garmonik izchillikni hosil qiladi. Oddiy ketma-ketliklar mantiqiy muvofiqligi shunga asoslanganki, tonika uchtoʻvushligidan keyin bir yoki bir necha noturgʻun garmoniyalar kiritilib, ohangda keskinlik yaratiladi. Soʻngra tonikaning paydo boʻlishi bilan tabiiy yechilish sodir boʻladi.

Garmonik davralar *avtentik, plagal va to'liq davralarga* ajratiladi.



Plagal davralar tonika va subdominanta akkordlaridan tashkil topadi.

Avtentikdavralar tonika va dominanta akkordlaridan tashkil

3 topadi.



To'liq davralar barcha funktsiyalar: T - S – D – T ni o'z ichiga oladi.

Plagal davralar: S - T , yarim plagal davralar: T – S.

Avtentik davralar: D –T, T- D- T, yarim avtentik davralar: T- D, S -D;

Major va minorning to'liq funktsional tizimi.

Funktsional tizim butun muiqiy harakati mantig'ida namoyon bo'ladi. Garmonik harakat deganda mustaqil ohangdoshliklar izchiligi nazarda tutiladi. Garmonik harakat mantig'i turg'unlik va noturg'unlik holatlarning almashinishiga asoslanadi. Turg'unlik funksiyasini Tonika, noturg'unlik funksiyasini boshqa akkordlar bajaradi. Eng noturg'un akkordlar qatorini ladning eng noturg'un VII pog'onasi kiradigan akkordlar tashkil qiladi. Bunday akkordlar D guruhiga taaluqli. VII pog'ona akkord tarkibiga kirmagan akkordlarning noturg'unligi kamroq bo'lib, S guruhini tashkil qiladi.

Asosiy uchovushliklar – T, S, D. Yondosh uchovushliklar esa boshqa pog'onalarda tuziladi.


Asosiy uchtovushlik bilan ikkita umumiy tovushga ega bo'lgan yondosh uchtovushliklar bitta funktsional akkordlar guruhini hosil qiladi. Har bir guruhdagi yondosh uchtovushliklar asosiy uchtovushlikdan tertsiya yuqori va tertsiya pastda joylashadi.

Bunday funktsional guruh uchta - tonika, subdominanta, dominanta guruhlari. Uchta funktsional guruhning markazida asosiy uchtovushlik turadi. Butun guruh shu asosiy uchtovushlik funktsiyasi bo'yicha nomlanadi.

subdominanta guruhi	tonika guruhi	dominanta guruhi
pog'onalar IIVVI	pog'onalar VII III	pog'onalar III V VII
re-fa-lya, fa-lya-do, lya-do-mi	lya-do-mi, do-mi-sol, mi- sol-si	mi-sol-si, sol-si-re, si- re-fa

Minor ladiga majorli dominanta uchtovushligi kiritilishi major va minor lادلarni yaqinlashtiradi.

Musiqi asarida umumiy garmonik xarakatning asosiy yo'nalishi quyidagi formula bilan ifodalanadi:



T – S – D – T:


Bu formulaning istalgan funktsiyasi guruhidagi yondosh akkordlarning birortasi bilan ham berilishi mumkin. Tabiiy major va tabiiy minorning barcha akkordlari to'liq diatonik funktsional tizimni vujudga keltiradi.

Turg'unlik va noturg'unlik.

Musiqiy tovushlarning turli xususiyatlari (balandlik, cho'zim, qattiqlik, tembr) faqat kuyning jonli harakatida va ularning o'zaro ta'siridagina namoyon baladi. Shuning uchun, tovushlarning birlashishgan holda tartibga solinishi, bir biri bilan «chiqisha olishi» muqarrar. Faqatgina ularning uyushqoqligi musiqaning mazmunini, fikrini ifoda qila olishga yo'l qo'yadi. Musiqiy fikrning rivojlanishida tovushlar o'zining ahamiyati darajasi bilan ajraladi. Kuy yangrashida odam qulog'i

ilgari intiladigan, kelgusi harakatga undaydigan, *noturg'unlik* holatini yaratadigan tovushlarni va o'ziga tortib turadigan, harakatni to'xtatadigan, tayanchsimon, *turg'unlik* holatni yuzaga keltiradigan tovushlarni farqlab oladi.

50 O'zbek
xalq qo'shig'i
"Qora sochim"



Misol qilib keltirilgan «Qora sochim» qo'shig'ida re (d) tovush tinchlanish, harakatsizlik tuyg'usini yaratadi. Kuyning qolgan tovushlari, aksincha, harakatni talab qiladi, buning ustiga, *re* tovush tomoniga intilgan harakatni talab qiladi. Shunday qilib, *re* tovush boshqa tovushlarni o'ziga tortib turadigan bo'lib, *turg'un tovush* deb ataladi. Unga intiluvchi tovushlar esa *noturg'un tovushlardir*. Noturg'un tovushlarning intiluvchan harakati turg'un tovushga, ya'ni asos «rol»ini o'ynaydigan tonga kelib to'xtaydi. Bu asosiy tonga *tonika* deyiladi.

Tovushlarning bunday har xil «rol»lari, albatta, ularning kuy shaklidagi joylashuvi (musiqiy iboraning boshida, yoki o'rtasida, yoki yakunida o'rnashishi), metrik holati (kuchli yoki kuchsiz hissaga to'g'ri kelishi) bilan ham chambarchas bog'liq. Biroq, eng muhimi – buni musiqaning zaruriy xususiyati o'rnida ko'rishilozim, tovushlarning o'zaro munosabatlaridir.

Lad.Lad tovushqatori.

Tovushlarning tonikaga nisbatan munosabatlari orqali aniqlanadigan o'zaro aloqalari tizimiga *lad* deyiladi. Laddagi har bir tovushning roli va harakatining xarakteri uning *laddagi funktsiyasini* aniqlaydi. Tovushlarning munosabatlari esa lad munosabatlari yoki funktsional munosabatlar deyiladi. Laddagi tovushlarning

soni, o'rasidagi tonlar miqdori, funktsional munosabatlari turli xil shaklda ifodalanish mumkinligi musiqa taraqqiyoti tarixida turli tizim (soz)larning vujudga kelishiga asos bo'ladi (masalan, pentatonika, diatonika, qadim yunoniston ladlari tizimi, geksaxordlar tizimi, major-minor tizimi va boshqalar).

Muayyan lad tizimiga tegishli tovushlar **pog'ona**, pog'onalarining balandlik bo'yicha izchil joylashuvi **ladning tovushqatori** deb aytiladi. Ladning birinchi pog'onasi, tonika – I raqam bilan belgilanadi, ikkinchisi – II, keyingilari – III, IV, V va hokazo.

Misollarda «Qora sochim» va «Mog'ulcha» xalq qo'shiqlarining

51

"Qora sochim" tovushqatori

T

"Mog'ulcha" tovushqatori

T

tovus
hqatol
ari

keltirilgan. Ularning tarkibi bir xil.

Lekin, «Qora sochim» dagi tonika – *re* tovush, «Mog'ulcha»ning tonikasi – *sol*. «Qora sochim»da *re* tovush – turg'unfunktsiya, «Mog'ulcha»da esa noturg'un. Birinchi misolda *mi-bemol* tovush II- pog'ona, ikkinchi misolda u VI- pog'ona roliga ega; VI- pog'onaning *sol* tonikaga tortilishidan ko'ra II- pog'onaning *re* tonikaga intilishi kuchliroqdir. Chunki, noturg'un tovushdan turg'un tovushgacha orasi kanchalik kam (tor, kichik) bo'lsa, shunchalik tortilish kuchi ham oshadi. *Mi-bemol* dan *sol* gacha orliq 2 ton, *re* gacha esa – 0,5 tonga teng. Demak, ladning ta'rifidan qelib chiqan holda, tovushqatorning qaysi bir pog'onasi tonika qilib olinganligiga qarab, noturg'un tovushlarning roli, vazifasi, harakati, boshqachaaytganda funktsiyasi hamda o'zaro munosabatlari o'zgaradi, vaboshqa xil lad hosil bo'ladi.

Lad tovushqatorini pog'onalari orasidagi ton va yarim tonlarningmuayyanketma-ketligitovushqatorningtuzilishi


(**strukturasi**)debataladi.Tovushqatorningtuzilishi kuy ohangining turli emotsional tuslariga ta'sir qiladi. Ladning u yoki bu emotsional rangi (yorug', osoyishta yoki mayus, qayg'uli) avvalom tonika bilan III- pog'ona orasidagi tonlar miqdori bilan aniqlanadi. Shunga muvofiq holda, ladlarning xilma-xilligi ikkita asosiy turga

turkumlanadi: 1) tonikadan III- pog'onagacha 2ton bo'lsa **majorli ladlar**, 2) tonikadan III- pog'onagacha 1,5 ton bo'lsa **minorli ladlar**.

Harfiy belgilash tizimida major "**dur**" – qattiq, minor "**moll**"– yumshoq so'zlar bilan belgilanadi.

Major va minor ladlar garmonik tizimi.

Bu xildagi ladlar oktava hajmida bo'lib, yettita pog'onadan iborat. Ularda tonika rolini quloqqa yokimli eshitiladigan uch tovushdan iborat ohangdoshlik (garmoniya) bajaradi. Turg'un tonika ohangdoshligini tashkil qiladigan **I, III va V pog'onalar turg'un pog'onalar** deb hisoblanadi. Major ladida turg'un



pog'onalar – majorli ohangdohlikni, minorda – minorli ohangdoshlikni hosil qiladi. Qolgan pog'onalar – **II, IV, VI va VII - noturg'un**dir. Ular ham, o'z navbatida, noturg'un ohangdoshlikka yig'iladi:

Ushbu garmonik tizim ohangdoshlikning ichidagi tovushlar munosabatlarini hamda ohangdoshliklarning o'zaro alokalarini uyushtirilgan holga keltiradi. Shuning uchun, noturg'un tovushlar nafaqat tonikaga, balki uning ohangdoshligini tashkil qiluvchi tovushlar (III, V pog'onalar) ga ham intiladigan bo'ldi. *Noturg'un*

intilishi VII > I < II > III < IV > V < VI *tovushning turg'un tovushga intilishi deb aytiladi.*
Noturg'un tovushning intilishi bo'yicha turg'un tovushga o'tishi tovushning yechilishi deb aytiladi.

53

Ladning noturg'un pog'onalari tovushlar tortilishi tizimiga bo'ysunib, ko'yidagicha yechiladi:

VII- pog'ona faqat yuqoriga tortilib, I- pog'ona, Tonikaga yechiladi.

VI- pog'ona faqat pastga tortilib, V- pog'onaga yechiladi.

II- va IV- pog'onalar ikki tomonga qo'shni turg'un tovushlarga echilishi mumkin. Biroq, II- pog'onaning tonikaga echilishi, IV- pog'onaning III- pog'onaga echilishi tabiiyroqdir. Chunki, avvalom turg'un pog'onaning turg'unlik darajasi (III- pog'onaga qaraganda I- pog'onaning turg'unlik darajasi yuksakroq), so'ng noturg'un pog'onadan turg'un pog'onagacha uzoq-yaqinligi e'tiborga olinadi.

Lad pog'onalari funktsiyalari.

Major va minor lادلarning tovushqatori va pog'onalarining funktsiyalari barcha oktavalarda saqlanadi. Shuning ushun tovushqatorning VIII- pog'onasini ham tonika deb bilish lozim. Lad tovushqatorining pog'onalari maxsus nom va tartib raqamga egadir:

- I. pog'ona – **tonika** (*T; t*)
- II. pog'ona – *pasayuvchi* (*yoki yuqorigi*) *yetakchi* *tovush*
- III. pog'ona – *yuqorigi medianta*
- IV. pog'ona – **subdominanta** (*S; s*)
- V. pog'ona – **dominanta** (*D*)
- VI. pog'ona – *pastki medianta*
- VII. pog'ona – *ko'tariluvchi*(*yoki pastki*) *yetakchi* *tovush*

Lad funktsiyalarini aniqlashda tovushlarning Tonikaga nisbatan kvarta-kvintali aloqalari eng muhim deb hisoblanadi. Bunday akustik qardoshlikka



asoslangan aloqalar faqat Tonika bilan Subdominanta va Tonika bilan Dominanta

orasida hosil bo‘ladi. Shuning uchun, **T, S va D asosiy pog‘onalar** deb hisoblanadi.

54

Mediantalar – III- pog‘ona tonika va dominanta o‘rtasida, VI- pog‘ona tonika va subdominanta o‘rtasida joylashgan pog‘onalar.

55



Yetakchi pog‘onalar – VII- pog‘ona yuqoriga qarab, pog‘ona pastga qarab tonikaga intiladigan pog‘onalar.

Major va minor turlari. Gamma.Tetraxord. Tonallik.

Major va minor lادلarning tarixiy rivojlanishi ularning doimiy o‘zaro ta’sirida, bir biriga yaqinlashish harakatida o‘tgan. Natijada, musiqa amaliyotida asta-sekin lادلarning uch xili shakllanib chiqdi. Bular **tabiiy, garmonik va melodik turlaridir**.(Bundan buyon lادلarga tabiiy major, garmonik major, melodik major, tabiiy minor, garmonik minor, melodik minor deb aytiladi.).Ushbu turlarning bir biridan farqi pog‘onalar orasidagi masofalarga bog‘liq.

Tabiiy major va minor tovushqatorlarining tuzilishi diatonikton va yarim tonliklar izchil joylashuvi bilan farqlanadi.

Tabiiy major gammasi, ya’ni tovushqatorning tonikadan boshqa oktavadagi tonikagacha tuzilishi, qo‘yidagi struktura (tuzilish)ga ega:

56

tabiiy majorning tuzilishi



1 1 0.5 1 1 1 0.5
I II III IV V VI VII I

1ton – 1ton – 0,5ton – 1ton – 1ton – 1ton – 0,5ton.

Major gammasi ikkita bir xil tuzilgan – **1ton – 1ton – 0,5ton**, – tetraxord³dan iborat. **Tetraxord** – kvarta xajmidagi 4 ta pog‘onali tovushqatordir.

³Tetraxord – (grekcha τετρα –to`rt, χορδή - tor)

Pastki tetraxord I- pog'onadan, yuqoridagi tetraxord V- pog'onadan boshlab tuziladi. Tetraxordlar orasidagi masofa – 1ton.

Tabiiy minor gammasining strukturasi (tuzilishi) qo'yidagicha ko'rinishga



ega bo'ladi: **1ton – 0,5ton – 1ton – 1ton – 0,5ton – 1ton – 1ton.**

Minorning tetraxordlari har xilcha tuziladi:

pastki tetraxord – **1ton – 0,5ton – 1ton,**

yuqoridagi tetraxord – **0,5ton – 1ton – 1ton.**

Lad – abstrakt tushunchadir. U muayyan balandlikda mustahkamlanib, faqat musiqa yangrashida gavdalanadi. Lad tonikasi 12 ta pog'onali musiqaviy tizimning birorta tovushida joylashsa, o'sha tovush **ladning balandligi**, ya'ni **tonalligini** aniqlaydi. Musiqaviy tizimning har bir tovushidan bitta major va bitta minor ladni tuzish mumkin, shunda tonalliklarning soni kamida 24 ta bo'ladi. (I.S.Baxning «Yaxshi temperatsiyalangan klaviri»ni eslang). Bunga qo'shilib, tovushlar engarmonizmi tamoyili ham tatbiq etilsa, tonalliklar soni yanada ortib boradi.

Masalan, lad majorli bo'lsa, tonikasi – *lya-bemol* tovushga joylashgan bo'lsa – izlangan tonallik *lya-bemol major (As-dur)* bo'ladi; lad – minor, tonikasi – mi, izlangan tonallik – *mi-minor (e-moll)*. Harfiy belgilash tizimi bo'yicha major tonalliklari katta harf bilan, minor tonalliklari kichik harf bilan yoziladi.

Xulosa

Musiqqa tarixi. MUSIQAning paydo bo'lishi masalasida turli ilmiy farazlar vujudga kelgan: hissiyotga to'lgan nutq oxangi (G. Spenser), qushlarning sayrashlari va hayvonlarning uz juftlarini chaqirishi (Ch. Darvin), ibtidoiy odamlarning mehnat usullari (K. Byuxer) va ularning chaqiriq tovushlari (K. Shtumpf), jodusehrlash marosimlari (J. Kombarye) MUSIQAning ilk manbalari hisoblanadi. Sharq muta-fakkirlari ham MUSIQAning vujudga kelish muammosi haqida ilmiy mulohazalar qoldirishgan. MUSIQA tarixini Forobiy inson nutqining shakllanish jarayoni va hissiyotlari bilan bevosita bog'liq holda, Ibn Xaldun (14-a.) esa — ijtimoiy tizimlarning shakllanish krnuniyatlariga asoslangan xrla tushuntirishgan.

Zamonaviy musiqashunoslik fani arxeologiya va etn. ma'lumotlaridan kelib chiqib, MUSIQA san'atini ibtidoiy jamiyatda insonning amaliy faoliyati jarayonida boshqa san'at turlari (rake, she'riyat va q.k.) bilan krrishma (sinkretik) holda paydo bulishini asoslab beradi. Bunda MUSIQA ijtimoiy muloqot vositasi, mehnat va marosim jarayonlarini tashkil etish vositasi bulib xizmat qiladi va, ayni vaqtda, jamiyatga zarur axlokiyma'naviy xususiyatlarni tarbiyalash maqsadlarini kuzlaydi. Ibtidoiy davrning oxirgi bosqichida dastlabki qorishma san'at majmuasidan bir qancha san'at turlari, jumladan, MUSIQA ham ajralib chiqadi. Ushbu davrga mansub afsonalarda MUSIQA tabiatga, yovvoyi hayvonlarni o'rgatishda ta'sir kursatish, insonni turli kasalliklardan davolovchi kuch sifatida ta'riflanadi (q. Alikambar, Ibtidoiy san'at, Mavsum ko'shiklari, Marosim qo'shiqlari).

Quldorlik va ilk feodal tuzumiga asoslangan qad. dunyo davlatlari — Misr, Shumer, Bobil, O'rta Osiyo (taxmusiqqa mil. av. 1ming yillik davri), Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Rim madani-yatlarida kasbiy musiqachilar maktablari shakllangan. Ular maxsus (bastakorlik, musiqqa ilmi kabi fandagi) bilim va qoidalarga asoslanib ijod qilgan. Natijada aytim, cholg'u, raqs, doston va b. janrlar paydo bulgan.

Turli xil MUSIQA asboblari (chang, ud, tanbur, lira, kifara, puflama va urma asboblari) takomillashtirilib, ular barqaror tovushqator va shakllarga ega bo'lgan. MUSIQAning ushbu davrda asosan og'zaki an'anada rivojlanishiga qaramay, ayni

vaqtda, uning ilk yozuv (iyeroglif, harfiy va b.) tizimi ixtiro etilgan, MUSIQA estetikasi va nazariyasi ta'limotlari shakllangan: Xitoyda — Konfutsiy, Yunonistonda — Pifagor, Geraklit, Demokrit, Aristotel, Platon, Aristoksen va b., O'rta Osiyoda — Borbad.

Adabiyotlar

1. Akbarov I.A. Musiqalug'ati. - T.: O'qituvchi, 1997. – 384 b.
2. Apraksina O.A. Metodika muzikal'nogo vospitaniya v shkole. Uchebn. posobiye. - M.: Prosvesheniye, 1983. - 224 s.
3. Britva. Posobiye po teorii muziki i sol'fedjio. 2-e izd. M., 1997.
4. Vaxromeyev V.A. Muzikaning elementar nazariyasi. - T.: O'qituvchi, 1980. - 224 b.
5. Vaxromeyeva T.A. Spravochnik po muzikal'noy gramote i sol'fedjio. M., 2004.

www.ziyonet.uz

www.e-kutubxona.uz